

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligining 2024- yil “ 29 ” fevraldagi
19- son buyrug‘iga
ILOVA

Shaxsiy avtomototransport egalarining tashish faoliyatini tanlama
statistika kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tartib

Mazkur tartib avtomobil transporti faoliyati hajmi to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarining to‘liqligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan representativ ma’lumotlar olish maqsadida, shaxsiy avtotransport egalarining tashish faoliyatini tanlama statistika kuzatuvini (keyingi o‘rinlarda – kuzatuv) tashkil etish va o‘tkazish mexanizmini belgilaydi.

Uslubiy tartib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi PQ-4796-son “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma’lumotlarni ishlab chiqarish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keying o‘rinlarda-GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur tartib jismoniy shaxslarning tashish faoliyati hajmidagi hissasi to‘g‘risida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish uchun imkon beradigan ishonchli statistika ma’lumotlarini shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan foydalanishga mo‘ljallangan.

Kuzatuv O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transporti faoliyati to‘g‘risida imkon qadar to‘liq ma’lumotlarni shakllantirish uchun tadbir qilinadi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib GSBPM ning yig‘ish bosqichi doirasida tanlanmani shakllantirish, kuzatuvni tashkil etish, kuzatuvni amalga oshirish va kuzatuvni yakunlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

2. Mazkur tartibda quyidagi asosiy tushuncha va ta’riflardan foydalaniladi:

yo‘lovchi avtomobili – o‘zining tuzilishi va jihozlanishi jihatidan yo‘lovchilar va bagajlarni tashishga mo‘ljallangan, zarur qulaylik va xavfsizlik bilan ta’minlangan avtomobil;

yuk avtomobili – yuklarni tashishga mo‘ljallangan, qattiq ramali mexanik yo‘l transporti vositasi; yuk avtotransport vositalari foydalanish xarakteri va konstruktiv xususiyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy va ixtisoslashtirilgan vositalarga bo‘linadi;

tashilgan yuklar (yuk tashish hajmi) – yuk avtomobillarida, shu jumladan avtotirkamalarda tashilgan yuklar miqdori (pullik bagaj va pochmani qo‘shgan holda) har bir qatnov uchun yukning tara yoki konteynerlar og‘irligini hisobga olgan holdagi haqiqiy og‘irligi bo‘yicha aniqlanadi (tonnada o‘lchanadi). Tashilgan yuk hajmini avtomobilning texnik tavsifnomasida ko‘rsatilgan yuk ko‘tarish qobiliyati bo‘yicha aniqlash, faqatgina tashilgan yukning haqiqiy og‘irligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lmagan hollardagina amalga oshirilishi mumkin;

transportning yuk aylanmasi – transportning yuk tashish bo‘yicha ish hajmi o‘lchov birligi tonna-kilometr hisoblanadi. Tashilgan yukning har bir partiyasi (jo‘natilgan) og‘irligini uni tashilgan masofaga ko‘paytmasining yig‘indisi orqali aniqlanadi;

tashilgan yo‘lovchilar – ma’lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar soni. Statistika kuzatuv birligi bo‘lib tashilgan yo‘lovchilar soni (yo‘lovchi-qatnovi) hisoblanadi;

yo‘lovchi aylanmasi – yo‘lovchining tashish masofasini hisobga olgan holda yo‘lovchilarni tashish hajmini tavsiflovchi ko‘rsatkich. Har bir tashish bo‘yicha yo‘lovchilar sonini tashish masofasiga ko‘paytmasini yig‘indisi orqali aniqlanadi. O‘lchov birligi yo‘lovchi-kilometr, ya’ni yo‘lovchini 1 km masofaga ko‘chirish;

tashish masofasi – ma’lumotlarni uzatish tarmog‘i orqali obyektни jo‘natish nuqtasidan belgilangan nuqtagacha tashish (transportda tashish) masofasi (kilometrda o‘lchanadi);

yuklarni tashishning o‘rtacha masofasi – o‘rtacha bir tonna yuk tashiladigan masofa. Butun avtotransport bo‘yicha, alohida yuklar va qatnov turlari bo‘yicha yuk aylanmasini (tonna-kilometrda) tashilgan yuklar hajmiga (tonnada) bo‘lish orqali aniqlanadi;

yo‘lovchilarni tashishning o‘rtacha masofasi – o‘rtacha bir yo‘lovchi tashiladigan masofa. U butun avtotransport va qatnov turlari bo‘yicha yo‘lovchi aylanmasini (yo‘lovchi-kilometrda) tashilgan yo‘lovchilar soniga bo‘lish orqali aniqlanadi;

shahardagi tashuvlar – shahar va shaharchalar hududidan chiqmagan holda amalga oshiriladigan tashuvlar;

shahar atrofidagi tashuvlar – shahar va shaharchalar hududi chegarasidan tashqariga ellik kilometr bo‘lgan masofagacha amalga oshiriladigan tashuvlar;

shaharlararo tashuvlar – shahar va shaharchalar hududi chegarasidan tashqariga ellik kilometrdan ko‘proq bo‘lgan masofaga amalga oshiriladigan tashuvlar, shuningdek, masofaning uzunligidan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasining ikki va undan ortiq viloyatlari hududida amalga oshiriladigan tashuvlar;

statistik-registrator – ijtimoiy yoki boshqa so‘rovnomada ishtirok etuvchi shaxs.

3. Kuzatuvning maqsadi tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni tasodifiy tanlov asosida tanlanma ravishda kuzatiladigan to‘plam birligi bo‘yicha tuman (shahar) hududlarida xizmat ko‘rsatish faoliyatini amalga oshiruvchi birliklarning kuzatilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha bosh to‘plamini tavsiflashdan iboratdir. (ushbu so‘rovda - mintaqada faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi avtomobil egalarining umumiy soni)

4. Kuzatuv birligi, hududda tashish faoliyatini amalga oshirish uchun tegishli hujjatlarga ega bo‘lgan, shuningdek, tanlama kuzatuv o‘tkazish jarayonida xujjati yo‘qligi aniqlangan, ammo yuk va yo‘lovchi tashish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

5. Jami birliklar yig‘indisi hududda tashish xizmatlarini ko‘rsatuvchi jismoniy shaxslar soni quyidagi tashish xizmatlari bo‘yicha aniqlanadi:

yuk tashish bo‘yicha – tashish faoliyatini amalga oshirish uchun tegishli hujjatlarga ega bo‘lgan va ega bo‘lmaganlar;

yo‘lovchi tashish bo‘yicha – tashish faoliyatini amalga oshirish uchun tegishli hujjatlarga ega bo‘lgan va ega bo‘lmagan.

6. Shaxsiy avtotransport vositasi yuridik shaxslar tomonidan ijaraga olingan jismoniy shaxslar, kuzatuv so‘rovnomasini o‘tkazish jarayoniga jalb etilmaydi.

7. Kuzatuv asosiy statistika ma’lumoti manbalaridan biri hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (keyingi o‘rinlarda – Statistika agentligi deb ataladi) tomonidan tasdiqlangan jadvalga asosan har chorakda o‘tkaziladi.

8. Kuzatuvni o‘tkazish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- a) kuzatuvga tushadigan jismoniy shaxslarni tanlash;
- b) jismoniy shaxslarning ro‘yxatini shakllantirish

- c) kuzatuv so'rovnomasi bo'yicha so'rov o'tkazish;
- d) ma'lumotni birlamchi tekshirish va kiritish.

2-bob. Kuzatuv instrumentariysi

9. Har chorakda tanlanma kuzatuvni o'tkazish uchun 4 tr (jsh) "Shaxsiy avtomototransport egalarining tashish faoliyati to'g'risida so'rovnoma" statistika kuzatuvini blankasiga asosan o'tkaziladi (mazkur statistika kuzatuvining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika kuzatuvini asosida shakllantiriladi).

Ushbu so'rovnoma "Yuk tashish" va "Yo'lovchi tashish" boblaridan iborat. Har bir bobida kuzatuv o'tkazish joyi yoki avtoturargoh manzili aniq ko'rsatilishi lozim.

3-bob. Kuzatuv so'rovnomasini o'tkazish joylarini tanlab olish va tashkil etish bosqichi

10. Kuzatuv Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududlarida o'tkaziladi. Jismoniy shaxslardan ma'lumotlarni yig'ish, shahar va tuman statistika bo'limlari tomonidan tanlama kuzatuv asosida to'g'ridan-to'g'ri so'rov yo'li bilan amalga oshiriladi. Taqdim etilgan ma'lumotlarni to'plash planshet qurilmalaridan foydalangan holda CAPI (Computer Assisted Personal Interviewing) texnologiyasi asosida amalga oshiriladi.

11. Kuzatuv o'tkaziladigan obyektlarni tanlab olish ishlari bir nechta bosqichda amalga oshiriladi;

a) birinchi bosqichda hududiy statistika bo'limlari tomonidan har bir aholi punkti bo'yicha avtoturargohlar joyining yalpi hisobi o'tkaziladi, bunda:

yuk yoki yo'lovchi avtomobillari bo'yicha ;

shahar, shahar atrofi va shaharlararo yo'nalishlardagi tashish xizmatlari bo'yicha turlari inobatga olinadi;

b) ikkinchi bosqichda kuzatuv joylari quyidagi tashish xizmatlarini ko'rsatuvchilar guruhlariga bo'linadi:

shahar va shahar atrofi yo'nalishlaridagi yuklarni tashuvchilar;

shaharlararo yo'nalishlardagi yuklarni tashuvchilar;

shahar va shahar atrofi yo'nalishlaridagi yo'lovchilarni tashuvchilar;

shaharlararo yo'nalishlardagi yo'lovchilarni tashuvchilar;

v) uchinchi bosqichda har bir hudud uchun yuqorida qayd etilgan tashish xizmatlarini ko'rsatuvchilar guruhi bo'yicha kuzatuv obyektlarini tasodifiy asosida tanlab olinadi.

Masalan, avtoturargohda yuk tashish bilan shug'ullanuvchi o'nta yuk mashinasi mavjud ulardan yettitasi yuk ko'tarish qobiliyati uch tonnagacha bo'lgan, uchta yuk ko'tarish qobiliyati besh tonnagacha bo'lgan avtomobillar, shuning uchun 30 % li tanlashga muvofiq, yuk ko'tarish qobiliyati uch tonnagacha bo'lgan ikkita va yuk ko'tarish qobiliyati besh tonnagacha bo'lgan bitta avtomobilni kuzatish kerak. Yo'lovchi avtomobillarni tanlash xuddi shu tarzda o'tkaziladi: agar avtoturargohda 26 ta avtomobil mavjud bo'lsa (10 ta "Damas" rusumli va 16 ta yengil avtomobil), shunda uchta "Damas" rusumli avtomobilni va beshta yengil avtomobilni kuzatish kerak.

Shu bilan birga, jamoat transporti to'xtash joylarida, bozor va temir yo'l stansiyalariga yaqin joylarda, aeroportdagi avtoturargohlarda, savdo markazlarida, jamoat joylarida, ko'pqavatli uylar yonida va boshqa aholi g'ujum bo'lgan joylarda tashish faoliyati bilan shug'ullanadigan (tashish faoliyatini amalga oshirish uchun tegishli hujjatlarga ega bo'lgan va ega bo'lmaganlar) barcha shaxslarning 30 % dan ko'p bo'lmagan qismi qamrab olinadi.

4-bob. Kuzatuv o'tkazish tartibi

12. Kuzatuv o'tkazish jarayonida statistik-registrator quyidagilarga rioya etishi lozim:

tashish faoliyatini amalga oshiruvchi shaxsiy avtomototransport egalari ga hurmat bilan yondashgan holda xushmuomala bo'lish va so'rov jarayonida ishtirok etishning ixtiyoriyligini ta'minlash;

kuzatuvning maqsad va vazifalarini aniq tushuntirish;

so'rovnomanini qat'iy ravishda kuzatuvda belgilangan obyektlar bo'yicha o'tkazish;

tashish faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslardan olingan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash.

5-bob. Kuzatuv so'rovnomasini to'ldirish bo'yicha tushuntirish

13. Kuzatuv so'rovnomasi statistik-registrator tomonidan quyidagilarni hisobga olgan holda to'ldiriladi:

kuzatuv so'rovnomasining titul qismi, so'rovnomada ko'rsatilgan rekvizitlar (kuzatuv o'tkazgan statistika organi nomi, MHOBK kodi) bo'yicha to'ldiriladi;

kuzatuv so'rovnomasining birinchi bobi yuk tashish bo'yicha so'rov vaqtida olingan ma'lumotlar bilan to'ldiriladi;

kuzatuv so‘rovnomasining ikkinchi bobida yo‘lovchi tashish bo‘yicha kuzatilgan “Damas” rusumli va boshqa yengil avtomobillar ma’lumotlari keltiriladi;

ish kunlarining soni yuk va yo‘lovchi tashish uchun avtomobildan foydalanish kunlarining soni bilan aniqlanadi;

bir kunda qatnovlar soni – bu yuklarni ortishdan to yuklarni tushurgungacha, bir kun davomida yuklarni tashish bo‘yicha bajarilgan yuklangan reyslarning soni;

avtomobilning yuk ko‘tarish qobiliyati bilan bir qatnov uchun tashilayotgan yukning o‘rtacha og‘irligi nisbati, ya’ni yuk og‘irligi kuzatilayotgan avtomobilning yuk ko‘tarish qobiliyatidan oshmasligi kerak;

“Damas” rusumli avtomobillar va yengil avtomobillarning bir kunlik qatnovlari sonining transport masofasi va har bir avtomobil egasiga to‘g‘ri keladigan daromadga nisbati bilan aniqlanadi.

6-bob. So‘rovnomani yig‘ish, qabul qilish va qayta ishlash bo‘yicha ko‘rsatmalar

14. So‘rov jarayonida barcha kuzatuv so‘rovnomasi bo‘yicha so‘rov natijalari dasturiy ta‘minotga avtomat tarzda kiritiladi hamda arifmetik va mantiqiy xatolar yo‘qligi tekshiriladi.

15. Keyinchalik elektron ma’lumotlar bazasi shaklidagi yig‘ma ma’lumotlar hududiy supervayzerlarga yuboriladi. Olingan ma’lumotlar ular tomonidan tegishli uslubiy tavsiyalarga muvofiq kuzatilgan shaxslarning umumiy sonini shakllantirish va tashish faoliyatini amalga oshiruvchi shaxsiy avtomototransport egalari tomonidan ko‘rsatilgan avtomobil transporti faoliyati hajmini aniqlash uchun foydalaniladi.

16. Kuzatuv kunlari hududiy supervayzerlar quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

statistik-registratorlar o‘rtasida ishlarni taqsimlab berish, ularning ishlarini umumiy muvofiqlashtirish va nazoratga olish;

belgilangan kuzatuv obyektlarini joyiga chiqqan holda kuzatilganini nazorat qilish;

birlamchi elektron ma’lumotlarni qabul qilish;

kuzatuv jarayonida olinadigan barcha ma’lumotlar sifatini tekshirish;

kuzatuv jarayonida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ko'rish va zarur bo'lgan hollarda kuzatuv o'tkazish jarayonida bevosita ishtirok etish;

muntazam ravishda, joylarga chiqqan holda kuzatuv o'tkazish jarayoniga amaliy yordam ko'rsatish.

7-bob. Yakuniy qoidalar

17. Jismoniy shaxslar bo'yicha kuzatuv jarayonida olingan ma'lumotlar, ularning haqqoniyligi va obyektivligini nazorat qilish maqsadida boshqa statistika ma'lumotlari, xususan, uy xo'jaliklari, kichik biznes, shuningdek, soliq organining ma'muriy ma'lumot manbalari va boshqa statistika kuzatuvlari ma'lumotlari bilan taqqoslanishi lozim.

18. Kuzatuv yakuniy natijasi har bir transport vositasi uchun kuzatilgan davrda o'rtacha hisoblangan asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi va avtomototransport vositalari egalarining faoliyatini hududiy darajada to'g'ridan-to'g'ri qayta hisoblash yo'li bilan baholash uchun foydalaniladi:

yuk va yo'lovchilarni tashish – bir kunda bir avtomobilning o'rtacha ishlab chiqarishi – yuk bo'yicha (tonna), yo'lovchi bo'yicha (kishi);

o'rtacha ish kunlari soni;

yuk va yo'lovchi aylanmasi – o'rtacha bir tonna yuk va bir yo'lovchi tashish masofasining uzunligi;

tashish faoliyati xizmatlari – bitta yuk va yo'lovchi avtomobil ishining o'rtacha bir kunlik tushumi.

19. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati to'g'risida olingan ma'lumotlar (kuzatuv natijalari) sud-huquqiy nizolarni hal qilish, davlat xaridlarini amalga oshirish, savdo bitimlari to'g'risida qarorlar qabul qilish va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallanmagan.

20. Mazkur tartib hujjatini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy tartibni qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi "Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" 6-son qarori, 1-ilova // <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi 707-sonli "Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yollangan xodimlarni davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish hamda soliq solinadigan daromadlar va chegiriladigan xarajatlar hisobini yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga 3-Ilova // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik milliy ma'lumotlari bazasi (<https://lex.uz/>), 2021-yil 23-noyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018-yil 16-noyabrdagi 22-sonli "Avtomobil transporti faoliyati asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha uslubiy nizom", 1-ilova. // <https://lib.stat.uz/uz/>